

— Mening sevimli gazetamizga mehrim beqiyos, — deydi surxondaryolik 16 yoshli Lobar Xoliqova. — Bu gazetani o'qib, ko'p narsa o'rganish mumkin.



Tong

YULDUZI

Vatan yagonadir, vatan bittadir!

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

2007-yil

8 – 14-oktabr

N:41

(66634)



Aziz 8 yoshdan
20 yostgacha bo'lgan
bolalar va o'smirlar!

Sizlar uchun yangi
sahifalar tashkil etdik.

Sizga yaxshilik va
ezqulik yor bo'tsin.

2-bet

8-11

5-bet

12-16

7-bet

17-20

TABRIKLAYMIZ!

O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnatko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi.

Mukofotlangan barcha ustoz va murabbiylarimizni tabriklaymiz. Yosh avlod tarbiyasida aslo charchamang, deymiz.

MAKTABDA BAYRAM

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 202-umumita'lim maktabida ham. Ustozlar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan bayram tantanasi bo'lib o'tdi. O'quvchilar yod olgan she'rlari bilan ustozlarini muborakbod etishdi.

Maktabning sobiq o'quvchilari, hozirda estrada sirk kollejining sozandachilik 2-«G» guruhiga talabalari turli millatlarning sho'x musiqlarini ijsro etishdi. Hammadan ham 8-«A» sinf o'quvchisi Munojot Nabiraxo'jayeva ning raqsi barchaga ma'qul bo'ldi. Ushbu bayram tadbirini tashkillashtirishda maktab ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor muovini Ma'mura Xo'jayeva o'quvchilarga yaqindan yordam berdi.

Botir RAMAZONOV

«TOSHKENT OPEN – 2007»

Poytaxtimizning Toshkent tennis markazida dunyoning 20 ga yaqin tennis malikalari mehmon bo'lib turibdilar. Ular mukofot jamg'armasi 145 ming AQSH dollarini uchun o'zarbo'lib qo'shilgan litseyda 720 nafar iqtidorli o'g'il-qizlarning bilimlari yana-da charxlanadigan bo'ldi.

Tennis malikalari omad tilaymiz.


IQTIDORLILAR MASKANI

To'rtko'l tumanidagi ikkinchi zamonaviy akademik litsey foydalanishga topshirildi. Tuman ko'rkiga ko'rk bo'lib qo'shilgan litseyda 720 nafar iqtidorli o'g'il-qizlarning bilimlari yana-da charxlanadigan bo'ldi.

BEPUL CHIPTALAR BERILDI

«Diniy bag'ri kenglik va millatlararo totuvlik» shiori ostida Mirzo Ulug'bek nomli madaniyat va istirohat bog'iida tadbir bo'lib o'tdi. Unda yoshlarga millatlararo do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish, ular orasida do'stlik rishtalarini yana-da mustahkamlash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish hamda giyohvand moddalarning salbiy oqibatlari haqida tushuncha berildi.

«Jitimoiy himoya yili» munosabati bilan kam ta'minlangan oila farzandlariga bog'dagi o'yingohlarda bepul uchishlari uchun chaptalar berildi.



- Bobojon, juda shirinmi?
- Dunyodagi eng shirin anor bu, bolajon!
- Anorlaringizdan «Tong yulduzi»ni sevib o'qiydigan tengdoshlarimga ham yuboraylik.
- Juda yaxshi. Gazeta Seni saxiylikka o'rgatayotgan ekan, bu yil ham seni unga obuna bo'lishing uchun pul beraman.

Avvallari sinf sardori bo'lishni orzu qilardim. Bu yil sinf rahbarimiz Gulnora opa meni sinf sardori qilib tayinladilar. Lekin sardor bo'lishning ham o'ziga yarasha mas'uliyati borligini bilmagan ekanman. Biror sinfdoshim maktabga kelmay qolsa, sababini aniqlashim va bu haqda sinf rahbarimizga ma'lumot berishim, darsda to'polon qilgan bolalarni ham tinchlantirishim kerak. Bu hali hammasi emas. Barchaga o'rnat bo'lish uchun faqat «a'lo» baholarga o'qishim, namunalni xulqqa ega bo'lishim ham kerak. Sinf sardori bo'lish biroz qiyin bo'lsa-da, ustozimizning ishonchini qozonganidan, ular menga suyanayotganlaridan mammunman. Yaqinda Gulnora opamga bag'ishlab she'r ham yozdim:

SARDOR BO'LDIM



*Kasbingiz mashaqqatli,
Aziz ustoz, bilaman.
Shunday bo'lsa-da, sizga
Juda havas qilaman.*

*Mafstuna BOTIROVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq
shahridagi 25-maktabning
3-«B» sinf o'quvchisi*



Siz nima deysiz?

*Do'stini xafa qilgan
tengdoshingizga qanday
tanbeh berasisiz?*



*Qobil nega xafa?
Unga nima bo'ldi?*



*Yurtimizda kuz oy'i fayzli
kechadi. Bu oyda Siz ham meva-
chevalar terishda kattalarga
yordam beryapsizmi?*



*Suratdagi bolakay-
larga do'ppi juda yarash-
gan-a?*

*Do'ppi haqida bilgan-
laringizni yozib yu-
boring. Albatta gazeta-
mizda e'lon qilamiz.*

Aralash test:

1. $2+2 \times 4$ ning qiymati nechaga teng?
A) 12; B) 18; C) 16.
2. «O'quvchiga esdalik» she'rining muallifini toping?
A) Erkin Vohidov; B) Safar Barnoyev;
C) Quddus Muhammadiy.
3. Tabiatning qaysi hodisasi Rixter shkalasi bilan o'chanadi?
A) vulqon; B) zilzila; C) toshqin.
4. Maqolni davom ettiring:
«Odobli bola ... manzur»
A) xalqqa; B) elga; C) barchaga.

«H» mi yoki «X»

Ko'p hollarda «x» va «h» harfidan boshlanadigan so'zlarni uchratganingizda, qanday yozilishiga ikkilanib qolasiz. Ayniqsa, insho yozayotganingizda to'g'ri kelib qolsa bormi?! Yumshoq «h» bilan qattiq «x»larni farqiga bormay ham qolasiz. Sizlar shunday holatga tushib qolmasligingiz uchun e'tiboringizga shu harflardan yoziladigan so'zlardan namunalar berib borishga qaror qildik:

To'g'ri yozishdan saboq

«X», ya'ni qattiq:

xabar
xavotir
xavf
xayol
xazina
xazon
xayr
xalal
xalaqt
xaloyiq

«H», ya'ni yumshoq:

ha
habash
hayo
habib
havas
havza
havo
had
hadik
hayot

ERKAKLARNING ALLA AYTGANINI ESHITGANMISIZ?

Men va singlim onajonimizni haddan ortiq sog'inganimizda ko'rpara boshimizni tiqqancha o'ksib-o'ksib yig'lar edik. Bobojonim esa ikkalamizni o'rtamizga kirib olib: «Sizlarga ertak aytib beraymi?» derdilar, singlim: «Yo'q, alla aytib bering», derdi. Bobom allalarini boshlab yuborardilar:

*Qo'zichog'im, do'm bog'im,
Uxlab qolsin o'g'lonim,
Alla o'g'lim, alla-yo,
Uxla qizim, alla-yo.*

*Osmondan qushlar o'tdi,
Onangga xat olib ketdi,
Uxla o'g'lim, alla-yo,
Shirin qizim, alla-yo.*

*Onang kelar saharda,
Asal berar nahorda,
Alla o'g'lim, alla-yo,
Novvot qizim, alla-yo.*

*Ko'z yoshlaring mo'l bo'ldi,
Yelkalarim ho'l bo'ldi,
O'g'il bola yig'lamas,
Uyat bo'lar, alla-yo alla.*

O'n beshga kirib qolsam-da, haligacha bobomning allalarini qo'msayman. Yaqinda bir tush ko'ribman. Men ham kattayib, bobo bo'lgan emishman. Qizim esa chet elda o'qishda emish. Nevaramga xuddi bobom bizga aytgan allani aytayotgan emishman. Nevaram nima dermish deng:

– Bobo, erkaklar ham alla aytadimi?

– Ha, aytadi bolam, aytadi. Masalan, mening oyim Toshkentda ishlar edilar. Ular qynalib qolmasliklari uchun bobom bizlarni o'z uylariga olib kelganlar. Biz esa onamizni sog'inib yig'lar edik. Ana o'shanda hozir men senga aytgan allani bobom bizga aytib bergenlar.

Qiziq, o'ylab qoldim. Rostdan ham bobomdan boshqa erkaklar ham alla aytarmikin?! Erkaklarning alla aytganini hech eshitganmisiz?

*Shahzod TO'RAYEV,
poytaxtimizdagagi 302-maktabning 8-sinf o'quvchisi*

BOBOLARDAN QOLGAN MEROS

— Xabaringiz bor, «Kamalak» Bolalar tashkilotining yangi tahrirdagi Nizomi Respublika «Kamalak» Bolalar tashkilotining II konferensiysi tomonidan tasdiqlangan edi. Ushbu Nizom bolalar taklifi bilan qayta ishlandi.

Ayni paytda joylarda sardorlar, yetakchilar saylovi o'tkazilyapti. Ayniqsa, chekka qishloq maktablariga e'tiborni qaratganmiz. Sababi, ilgari «Kamolot»ning ko'plab tadbirlari shaharlarda, nari borsa, tuman markazlarida o'tkazilar edi. Qishloqlarda, chegara hududlarida jami 63 tadan ortiq yoshlarning ijtimoiy xizmat markazlari tashkil etilgan. Unda o'quvchilar ko'plab to'garaklarga jalb etilgan. Shuningdek, tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish uchun ham keng imkoniyat yaratilgan.

Bolalar o'rtasida sport musobaqalariga keng o'rinn beryapmiz. Birgina «Shunqorlar» harbiy-sport musobaqalarida 181 ming nafar o'rta umumta'lim maktab o'quvchilari, 82 ming nafardan ortiq maxsus, kasb-hunar ta'lumi tizimi o'quvchi-yoshlari ishtirok etishdi.

Bundan tashqari, «Kamolot» kutubxonasi tomonidan «Mehribonlik uy»lariga, maktablar kutubxonalariga tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan adabiyotlar yetkazib berish ishlariga tashkilot ham o'z hissasini qo'shmoqda.

Markaziy Kengash ko'plab xalqaro tashkilotlar – BMTning O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan YUNISEF, YUNESKO, YUNAYDS tashkilotlari, Yevropadagi Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining Toshkentdag'i mintaqaviy vakolatxonalari, Ozarbayjon, Misr, Xitoy, Qirg'iziston davlatlaridagi yoshlar siyosati bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari bilan ham do'stlik aloqalari o'rnatgan.

27-sentabr kuni «Kamolot» YOIHMKD Xalqaro konferensiya o'tkazildi. Unda AQSH, Germaniya, Yaponiya, Hindiston kabi mamlakatlardan taniqli olimlar, yoshlar murabbiylari taklif etildi. Konferensiyyada yoshlarning yutuq va muammolari, yoshlar tashkilotlarining faoliyati o'rganildi.

OCHILMAGAN TILSIM

Dunyoda eng baxtli inson kim deb so'rasalar, hech ikkilansmasdan «Ustoz» deb javob bergan bo'lardim. Bolalarga qalbidan mehr bera olgan insongina ustoz bo'la oladi. Bola qalbidagi his-tuyg'ularni sezadi. Bu esa ilm o'rganish va ilm o'rgatish uchun qo'yilgan birinchi qadamdir.

— Men bir-biridan shirin, beg'ubor bolajonlarga 20 yildan beri ta'limgar tarbiya berib kelaman. Ko'p yillik tajribamdan shunga amin bo'ldimki, har bir bola bir dunyo, ochilmagan tilsim, — deydi Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 18-maktab o'qituvchisi Lutfiya Nabiyeva. — Ustoz ana shu tilsimni ocha bilishi, har qaysi bolaning qalbini zabt etishi lozim. O'quvchilarimning mehri qo'limga qalam tutqazdi, ularga bag'ishlab she'r yozdim:

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bugungi kunda respublika mijyosidagi yirik tashkilot sifatida shakllanib borayotgani barchamizga ayon. Tashkilot faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida O'zbekiston Respublikasi «Kamolot» YOIHMKD raisi Akrom Alimov bilan uchrashdik va ular quyidagilarni gapirib berdilar:



KAMOLOT

YETAKCHI MAS'ULIYATI

Akmal ALIMBEKOV,

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati litsey bo'limi yetakchisi:

— Men Toshkent Irrigatsiya va melioratsiya instituti qoshidagi Yunusobod akademik litseyi talabasiman. Shu bilan birga, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati litsey bo'limi yetakchisiman.

O'z tengdoshlaringga, kerak bo'lsa, o'zingdan katta yoshdagi bolalarga yetakchi bo'lish katta mas'uliyat talab etadi. Shuning uchun ham har bir ishni avvalo, puxta o'ylab, ustozlarimiz bilan maslahatlashib amalga oshirishga harakat qilaman.

Yaqinda litseydagi 1-guruh talabalaridan 18 nafarini «Kamolot» tashkilotiga qabul qildik. Ular tashkilotga a'zo bo'lishganidan, biz esa safimiz kengayganidan quvondik.



GAZETAMIZ MA'QUL BO'LDI

Muhayyo SAMIGOVA,
Uchtepa tumanidagi

197- maktabning 8-«A» sinf sardori:

— Maktabimizdagi «Kamalak» Bolalar tashkiloti sardorlar Kengashi tomonidan Uchtepa tumanimizning 30 yilligi munosabati bilan sinflararo devoriy gazeta tanlovi o'tkazildi. Tanlovda biz o'zimizning gazetamiz bilan ishtirok etdik. Unda Yer shari tasvirlandi va O'zbekiston alohida o'rinn egalladi. O'zbekiston ichida esa tumanimizning o'z o'rni va roli borligi ifodalandi. Gazetamiz barchaga ma'qul bo'ldi va g'oliblar safidan joy oldik.



Feruza SOYIBJON qizi yozib oldi

«A» harfini o'tganimda, «V»ni o'qib kelishdi,
Boshqasini o'tay desam, barchasini bilishdi,
Ish rejamda to'qqiz harf, ne qilishim bilmayman,
«Alisbe»ni bolajonlar o'qib, yodlab bo'lishdi.

Katta «I» va kichik «L» ni qanday farqlay olishgan?
Hayron qoldim, ular meni gangitib ham qo'yishdi.
Ko'paytirish jadvalini yodlab olgan bittasi,
Poytaxtlardan savol berib mot qila bittasi.

Lutfiya opa aytganidek, ustozlik yo'li ezgulikka tutash. Mustaqillik ustoz-o'qituvchilar nomini va ishini e'zozlab, bu yo'lni yana-da nurafshon etdi. Endi bu yo'ldan yurganlar qismati Vatan istiqolli bilan kamarbasta bo'lishi shubhasiz.

Shohjahon RAUPOV

OZ-OZ O'ORGANIB, DONO BO'LUR

Siz 16 yoki 18 yoshdasiz. Katta yo'iga chiqyapsiz. Siz bilim olishga, o'qib o'rganishga intilib yashashingiz shart. Quyidagilarning birortasi Sizga jindek yordam ko'rsatar, degan umiddamiz.



QAYSI GULNI TERMOQ LOZIM?

Dunyo – yastanib yotgan bepoyon dala. Odamlar bu daladan haqiqat gullarini terib olish uchun yuborilgan terimchilardir.

Gullarning orasidan haqiqat gullarini ajratib olish qiyin. Lekin qanchalik mashaqqat bo'lmasin, faqat haqiqat gulini termoq lozim!

G'ulom OZOD

KIM BIRINCHI BO'LIB SALOM BERSA...

Shu'ba ibn Sayyor aytadilar: «Sobit Bunoniy bilan ketayotgan edim, oldimizdan bolalar chiqishdi. Sobit ularga salom berdi va: «Rasululloh (sollolohu alayhi vasallam) bilan ketayotganimizda, oldimizdan bolalar chiqqan va u zot bolalarga salom bergen edilar».

Bu rivoyatning sharhi shuki, kim oldin salom bersa, birinchi bo'lib savob oladi.



KIMLARDAN NAFRATLANISH KERAK?

To'rt toifa o'smirdan hamma nafratlanadi: qasamxo'rillardan, yolg'onchilardan, ilm olmaydiganlardan va kitob o'qimaydiganlardan.

PULGA SOTILMAYDIGAN NARSA

Donodan so'radilar:
– Odamni nima ziynatga burkaydi: pulmi yo'bilim?
– Bilim! – javob qildi dono. – Pul – qo'Ining kiri. Bugun bor, ertaga yo'q. Bilim esa hamisha o'zingda bo'ladi. Bilim xohlagancha pul topish mumkin. Lekin pul bilan bilimni sotib olib bo'lmaydi.

QORASAROY

Bolalar, bilasizmi, hayotning har bir daqiqasi go'yo inson umrini yaxshilikka chorlab turuvchi bir hikmatga o'xshaydi. Buning uchun esa o'sha insonda bolaligidan olgan ta'lism tarbiyasi asqotadi.

Biz kuni kecha XTV mutasaddilari bilan poytaxtimizda yangidan qad rostagan maktablarda mehmon bo'lib, boy taassurotlar bilan qaytdik.

Bundan bir necha oy avval avtobusda ikki o'quvchini suhabatini eshitib qolgandim. «Buyuk Britaniya va Ukrainadan kelgan mehmonlar maktabimizni rosa maqtashdi, biz bilan sinfxonalarida esdalik uchun rasmga tushdilar», deya faxrlanardilar.

Bolajonlarning zavqlanib so'zlayotgan o'sha maktabini bir borib ko'rgim keldi. Oradan hech qancha vaqt o'tmadidi. «1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni» bayramiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda biz jurnalistlar maktablarga tashrif buyurdik. Rosti, yurtimizda xorij maktablaridan qolishmaydigan, zamon talablariga javob beradigan bunday o'quv maskanlarining qad rostlab turganligi ko'zlarimizni



QADRDON DARGOH

Men ham shu maktabning sobiq o'quvchisiman. Sizlarga faxrlanib aytamanki, bu maktab mening qadrondar go'zalidir. 20 yillardiki, bolaligim o'tgan ushbu maskanda direktorman. Shu yillar orasida biz jamoamiz bilan 2 ta katta ta'mirlash ishlarni bajardik. Maktabimizning yangidan qad rostashi mahalla ahlini-yu o'quvchilarimizni, xodimlarimizni, barcha barchamizni g'oyat quvontirmaqda. Hozir maktabda 15 ta fan to'garaklari muntazam ishlab turibdi. Har bir sinfxonasi zamonaviy jihozlangan. Barcha shart-sharoitlarga ega maktabimizda yosh avlodga ta'lism tarbiya berishdek ulug'ish bilan band ekanligimizdan behad shodmiz.

Noila RAHMONOVA,
144-maktab direktori



OTCHOPARDA YANGI MASKAN

Ustozlar va murabbiylar kunida «Otchopar» mahallasi katta sovg'a bilan taqdirlandi. Bu yerda ularning farzandlari uchun ajoyib maskan qurib bitkazildi.

«Jitimoj himoya yili»da foydalanishga topshirilgan bu yangi binoda «Mehribonlik uy»larida, maktab internatlarida tarbiyalanayotgan bolalar ham o'zları yoqtirgan hunarni egallashlari mumkin.

yal-yal quvonchga, dilimizni esa g'ururga to'ldirdi.

Poytaxtimizning Sobir Rahimov tumanidagi 28 umumiyo o'rta ta'lism maktabiga kirib borganimizda binoning ko'rinishi bizni hayratga soldi.

Uch qavatlari maktab binosini ko'zdan kechirib, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdik. Ko'rkam maktab binosining 47 ta sinf xonasining har biri go'yo mo'jiza. Ularda so'nggi rusumdagagi 103 ta kompyuter ishlab turibdi. 4 ta EXM sinf esa internet tarmog'iga ulanganligi yana hayratingizni oshiradi. Bu maktabda Xastimom, Qorasaroy, Istiqlol va Namuna kabi mahallalarining farzandlari ta'lism tarbiya olishmoqda. Men shu tobdan bu mahalla bolalariga juda havas qildim. Boisi, maktab dunyo ahlini hayratda qoldirgan ulug' va muqaddas dargoh Xastimom masjidi yonida joylashganligining o'zi bolalar uchun katta baxt. Negaki, bu tabarruk dargohni ko'rish maqsadida dunyoning to'rt tomonidan kelayotgan sayyohlarni ko'rgan o'quvchilar ajodolarimiz qudratiga cheksiz hurmat bilan boqishni ham o'rganmoqdalar.

MO'JIZASI

Yakkasaroy tumanidagi 144-sonli umumiyo o'rta ta'lism maktabining o'quvchilari ham yangidan qad rostagan maktabda o'qishni boshladilar. Bugungi kunda 750 nafar o'quvchiga mo'ljallangan maktab binosida o'quvchi-yu o'qituvchilarining quvonchini ko'rsangiz, beixtiyor ularning shodligiga sherik bo'lgingiz kelayeradi.

Men shu maktabning sobiq o'quvchisiman, – deydi tuman Xalq ta'limi mudirasi Shohida Usmonxo'jayeva. – Maktabimizda 2007-yil aprel oyida Respublika «Mehr nuri» jamg'armasi tomonidan kapital ta'mirlash ishlari boshlangan edi. Bu ishlarga hissa qo'shgan sobiq o'quvchimiz Faxriddin Yusufxo'jayevga cheksiz

«MEHR NURI» SIYLAGAN MAKTAB

minnatdorchilik bildiramiz. Uning tashabbusi va homiyligi mahalla ahlini, ustozlarini ko'nglini tog'dek ko'tardi. Maktabda ta'lism tarbiya olayotgan har bir o'quvchimiz Faxriddin kabi yaxshi inson bo'lishga bel bog'lagan. Buning uchun «Maktab, mahalla, oila» yo'naliishi bo'yicha olib borayotgan ishlarni tuman miqyosida o'z o'mnini topgan.



YANGI O'QUV YILI BINODA

Maktabimizning eski binosi 1937-yilda qurilgan edi. Ammo bugungi ko'rinishi naq mo'jizaning o'zginasi.

Sinf mebellarimiz «Stekloplastik» korxonasining mahsulotlari bilan to'ldirildi. Maktab atrofiga igna bargli, manzarali daraxtlar o'tqazildi.

Dildora ORIPOVA,
Sobir Rahimov tumanidagi
28-maktab direktori

AKADEMIK BO'LAMIZ

Azim SHARIPOV,

144-maktabning 8-«G» sinf o'quvchisi:

– Ustozlarimiz aytishadiki, maktabimizda 13 nafar professorlar, 7 nafar akademiklar va fan nomzodlari yetishib chiqqan ekan. Biz ham bunday nufuzli maktabning eng yaxshi o'quvchilar bo'lmoqchimiz. Niyatimiz, ulardek fan zahmatkashlari bo'lish.

Ma'mura MADRAHIMOVA



QIZLAR

*Yurtimiz chiroyi, erkasi sizlar,
Hayotning ishonchi, ertasi sizlar.
Hamisha hayotning o'rtasi sizlar –
Juda ham go'zalsiz, go'zalsiz qizlar.*

*Otangiz, onangiz quvonchi sizlar,
Sizga boqib turar necha ming ko'zlar.
Sha'ningizga doston yozaylik bizlar,
Juda ham go'zalsiz, go'zalsiz qizlar.*

Sayohat O'RINOVA

YOLG'ONNING UMRI QISQA

Hurmatli tengdoshlar! Yaqinda men birgina yolg'onim sabab, matabga borishga, ustozim ko'ziga qarashga uyalib yurdim. Sizlar ham mening kunimga tushmanglar, deya ushbu maktubni yo'llayapman.

Uyimizga mehmonlar keladigan bo'lishdi.

Shu kuni matabga ham bormadim. Ustozimga biror bahona to'qirman, deb o'yadim.

Lekin dushanba kuni matabga borganimda, to'g'risi, yolg'on bahona to'qishga qiyndim.

– Qani, Madina qizim, juma kuni nega darsga kelmadimi?! – so'rabb qoldilar ustoz.

– Betob bo'lib qoldim, – dedim.

– Ertaga albatta kasal bo'lganining haqida shifokor ma'lumotnomasini olib kel, – dedilar u kishi.

Ertasi kuni ustoz sind xonaga kirishlari bilan mendan kechagi ma'lumotnomani so'radilar.

– Uyda qolib ketibdi, – dedim ovozimni o'zim bazo'reshitadigan ohangda.

Bu hol ikki-uch kun takrorlandi. Oxiri chidolmaganidan yig'lab yubordim.

– Ana, ko'rdingmi qizim, bir yolg'on ketidan bir qancha yolg'on chiqib kelaverishini, – dedi ustozim muloyimlik bilan.

Boshqa yolg'on gapirmaslikka ahd qildim.

MADINA

BAHORIY SHABADA EPKINI

Avvalroq Zilola SANAYEVAning «Rayhon guli» nomli she'rlar kitobchasini o'qigan edim. O'shanda u 6-sinfda o'qirdi.

Endi u nasr orqali o'z tengdoshlari diqqatini Mirzacho'l kengliklariga, u yerdagi o'ziga xos qaynoq hayotiga qaratmoqchi bo'libdi...

Men keng dalani-yu bepoyon cho'llar bag'rida unib-o'sganman, deya o'z tengdoshlariga g'urur bilan faxrlanib aytadi. Shuning uchun ham Zilolaning yozganlaridan olis sarhadlarning bahoriy shabada epkini usfuriq turganday bo'ladi.

Dadaxon NURIY



Bizga yozadilar

Salom «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari!

Men bu yil 7-sinfga qadam qo'ydim. Keyingi paytlarda nafaqat menda, balki boshqa sinfdoshlarimda ham o'zgarish sezyapman. Bir qarasa, hamma narsa o'z yo'lida davom etayotgandek, gohida esa hech narsa yoqmaydi. Kuni kecha hech qachon xafa qilmagan onajonimni ham ranjitib qo'ydim. Shunda qo'shni ayol: – Qo'yavering, hozir ular shunday yoshda-da. O'smir yoshidagilar shunaqa bo'lishadi, – dedilar.

O'smir yoshidagi bolalarda qanday o'zgarishlar bo'ladi? Shu haqda batafsil ma'lumotlar bersangiz.

Saidnazar MURODOV,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumani

TAHRIRIYATDAN: Biz Saidnazarning maktubini to'liq tarzda chop etdik. Utenggi bolalarda har xil o'zgarishlar bo'lishi tabiiy hol. Bu haqda gazetamizning navbatdagi sonlarida batafsil ma'lumot berishiga harakat qilamiz.

MUCHAL TO'YIMIZ BO'LADI

Men bu yil 6-sinfga o'tdim. Sinf rahbarimiz bu yil muchal to'yimiz bo'lishini aytganlarida, juda quvonib ketdik. Chunki insонning muchali har 12 yilda kelarkan-da. Muchal to'yimiza hozirdanoq tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz. Sinf rahbarimiz, kimni xohlasangiz taklif qilavering, dedilar. Biz bir ovozdan muchal to'yimiza «Tong yulduzi» jamoasini ham taklif qilishga kelishib oldik.

Nafisa RAHIMBOYEVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumani dagi
27-maktab o'quvchisi



MAKTABDA HOSIL BAYRAMI

Maktabimizda kuz faslida «Hosil bayrami»ni o'tkazish an'anaga aylanib qolgan. Sinfimiz bilan bu tadbirga qizg'in tayyorlanayapmiz. Sahna ko'rinishi, she'r va qo'shiqlarimiz bilan bu bayramni yana-da qiziqarliroq o'tishiga o'z hissamizni qo'shamoqchimiz.

Rahmatilla MUHSIMOV,
Sobir Rahimov tumani dagi
III-maktabning 4-«B» sind o'quvchisi



ARAZCHI

Nimagadir Nigora arazlab qoldi. U Dilrabo bilan yon qo'shni, sinfdosh, yaqin dugona edi. Hammani havasi kelar edi ularga. Bugun matematika darsidan ular sind ishi topshirishdi. Nigora dugonasiga ko'chirtimoqchi edi, Dilrabo u tarafga qaramadi-da! Uch-to'rt kun bo'ldiki, ular indamasdan yurishibdi. Nigoraning oyisi ular o'qiyotgan maktabda o'qituvchi edi. Uning ziyrak nigohi buni darrov payqadi.

– Qizim, nega Dilrabo bilan gaplashmayapsan?

– O'zi gaplashsa gaplashaman-da...


Ona-bola maktabga ketishayotganda, yo'lda Dilrabo uchrab'qoldi.

– Assalomu alaykum!
– Vaalaykum assalom. Qizim, nega Nigora bilan gaplashmayapsizlar, yaqin dugonalar bunday qilishmaydi. Qani, qo'llaringizni uzatib yarashib olinglar-chi.

Ular bir-birlariga qo'llarini uzatishdi va birdan kulib yuborishdi.

– O'zi nimaga urishib qolgan edik, Nigor? – dedi Dilrabo.
– Bilmayman! – dedi Nigora.
Shu-shu bu ikkala arazchi dugona hecham bir-biridan ajralmaydigan bo'lishdi.

Zilola SANAYEVA,
poytaxtimizdagи 322-maktabning
7-«A» sind o'quvchisi



VA BOLAKAY HAGIDA QISSA

Bolakay lip etib Karlsonning yelkasiga chiqdi. Karlson motorini yurgizdi. U derazadan uchib chiqdi-yu, yaqin atrofdagi tomlar ustida bir nafas uchib yurdi. Motoriga ishondi shekilli, nihoyat, o‘zi yashaydigan tomga qarab uchdi. Birozdan keyin uychasining yoniga borib qo‘ndi.

— Ana, keldik, — dedi Karlson, — qani ko‘ray-chi, mening kulbboxonamni topolasanmi, yo‘qmi?

Bolakay hech qachon tom boshiga chiqmagan edi. To‘g‘ri, u hovlida turib, beliga arqon bog‘lab olgan bir amakingin mo‘rkonlarini tozalab yurganini ko‘p ko‘rgan. Har safar o‘sha amakini ko‘rganda, bechoraning oyog‘i toyib yiqilib tushmasin-da, deb yuragi potirlar edi.

Ana endi o‘zi tomda yuribdi. Karlsonning uychasi qaysi mo‘rkonning orqasida ekan, deb yon-atrofga alanglardi. Oxiri topdi. Bir mo‘rkonning shundoqqina biqinida ko‘kringga bo‘yagan jajjigina uycha ko‘rindi.

Davomi. Boshli
o‘tgan sonlarda.

- Uychaning oldi jajjigina ayvoncha, eshikchasi ham kichkina, bejirim edi. Uycha sirtiga kaftdek temir parchasi yopishtirilgan, unga «Tomda yashaydigan Karlson» deb yozilgan edi.
- Karlson eshigini lang ochdi-da, birinchini bo‘lib o‘zi ostona hatladi.
- Xursand bo‘lib, qulochini yoygancha xitob qildi:
- — Kulgambizga xush kelibsizlar, qadrli Karlson va uning yangi do‘sti Bolakay! Marhamat qilsinlar!
- Karlson kira solib, o‘zini divanga tashladi:
- — Uh, biroz dam olay. O‘lguday charchadim...
- Bolakay bo‘lsa qiziqib uychani tomosha qila boshladidi. Bu yerda divandan tashqari kichkina stol, ikkita stul, temir panjara qoplangan qalini va ovqat pishirishga mo‘ljallangan g‘aroyib plita-o‘choq bor edi. Lekin bug‘ mashinalari ko‘rinmasdi.
- — Bug‘ mashinam ko‘p deb eding, qani ular? — so‘radi Bolakay.
- Karlson hech narsa bo‘lmagandek yolg‘onlab qo‘ya qoldi:
- — Portlab ketdi, ishonasanmi, biri qolmay portladi. Lekin sen xafa bo‘lma, Bolakay, hali senga ko‘p qiziq narsalarni ko‘rsataman.
- Karlson sakrab turdi:
- — Dam olib oldim. Yur, endi ikkovimiz tomma-tom o‘tib

- tomosha qilamiz. Ketdikmi?
- — Ketdik!
- Ular qo‘l ushlashib uydan chiqishdi. Bolakay rosa sevindi. Axir u hech qachon bunaqa baland tomlarda yurib, yerni tomosha qilmagan edi-da. Qosh qoraya boshladidi. Osmon ko‘kimir tusga kirdi. Atrof jim-jit. G‘ir-g‘ir shabada esadi. Yengil shamolda oq teraklarning yaproqlari shiviraydi, go‘yo Karlson bilan Bolakayga sirli bir ertak so‘zlayotgandek tuyuladi. Ikki do‘st tomdan tomga irg‘ishlab yurishibdi. Tomlar bir-biriga taqalib turgan bo‘lsada, bemalol sayr qilish xavfli edi. Ba’zi yerda ikki uy orasi yarim qadamcha ochiq qoldirilgan. O‘shanaqa joylardan o‘tishda toyib ketish qiyin emas.
- — Bolakay, ehtiyyot bo‘l! — deydi-yu, Karlson narigi tomga sakraydi. Bolakay unga taqlid qilaman, deb tomdagi yoriqqa qulab tushay dedi.

Yaxshiyam Karlson o‘z vaqtida qo‘l cho‘zdi, bo‘lmasa...

— Kechqurunlari uyda bir o‘zim o‘tirib zeriksam, mana shunday aylanib yuraman, — dedi Karlson, — ba’zan odamlar bilan hazillashib ham qo‘yaman.

— Qanaqasiga hazillashasan? Birovlar xafa bo‘lmaydimi?

— Tentak kishi hazilga xafa bo‘ladi, — dedi Karlson, — mana, sen xafa bo‘larmiding?




Bolakay javob berishga ulgurmadi. Yaqin yerdan go‘dak bolaning yig‘isi eshitildi. Bolakay qulok solib turdi. Chaqaloq bir to‘xtab, yana yig‘lar, eshitgan odamning rahmini keltirardi.

USTA VA CHARXPALAK

Shoyim BO‘TAYEV

(Ertak-qissa)



Ko‘rishga qiziqib kelganlarning barchasiga sichqonni chopqir otni yoki olg‘ir bur gutni maqtanib ko‘rsatayotgandek bajon-u dil ko‘rsatarmish. Bu ham yetmagandek, kelganlarning oldiga dasturxon yozib, dasturxon ustida sichqonning ko‘z ko‘rib, qulqoq eshitmagan boshqa qiliqlarini ham gapirib berarmish, hayron qolganini aytarmish. Odamlar sichqonni muhokama qilishdan charchamasdi: balki bu sichqon dunyodagi barcha sichqonlarning podshosi bo‘lib, tasodifan adashib, savdogarning uyiga kelib qolgandir deyishardi, balki bu sichqon sichqon emas, fildir... anavunaqa... tanosux’ bois sichqonga aylanib qolgandir, deyishardi. Balki bu sichqon umuman hayvon zotidan emasdir. Har kim har xil tusmollarni aytishardi. Bu tusmollarning birortasiyam jo‘iali emasdi.

Mish-mishlar Ustaning qulog‘iga ham yetdi.

1.Tanosux – evrilish, ruhning ko‘chishi.

O‘z ishi, charxpak yasab, Muqaddas Chashma arig‘ining narigi sohilidagi qishloqlarga suv chiqarib berish xayoli bilan band bo‘lgan usta avvaliga bu mish-mishlarga umuman e’tibor qaratmadidi. Ertasi kuni erta tongda kecha qulog‘iga chalingan mish-mishlari yodiga tushib qolib, kutilmaganda unga ajoyib bir fikr kelib qoldi.



SAVDOGARNIKIDA

Kutilmaganda Ustaning kallasiga ajoyib bir fikr kelib qolishi bilan u odatdagidek o‘zini tutolmay:

— Topdi-im! — deganicha qichqirib yubordi.

Keyin ovozimni hech kim eshitmadimikin, degan xavotirda tevarak-atrofga olazarak nazar tashlab oldi. U xavotirlanmasa ham bo‘laverardi, negaki, kechagi og‘ir mehnatdan toliqgan odamlar boshlarini ko‘tarolmay tong uyqusini olishardi.

Usta savdogarnikiga qarab yo‘l oldi.

Ustaning bu qadar erta tashrifi savdogarni ajablantirdi.

Ular salom-alik qilishdi.

— Narvon kerak bo‘lib qoldimi? — so‘radi savdogar Ustani narvonni so‘rab kelgan gumon qilib.

Usta bosh irg‘adi.

Savdogar narvonni ko‘tarib chiqdi.

— Rahmat, — deya minnatdorchilik bildirdi u. — Ho‘l bo‘lgan yunglarni o‘z vaqtida yoyib quritib oldim. Endi yana tuz olib kelyapman. Eshagimning esi kirib, yaramas odatini yig‘ishtirgani yaxshi bo‘ldi-da. Endi u tuzniyam xurjunga suv tegib ketmasin, deb juda ehtiyyotkorlik bilan olib o‘tyapti. Jo‘yali maslahat bermaganingizda, ancha boshim qotib yuruvdi, endi sizdan qanchalik minnatdor bo‘lsam arziyi.

Usta indamadi.

Narvonni yelkasiga ortmoqlab, paysallab turaverdi.

— Uyga kirib bir piyola choy ichib ketmaysizmi? — iltimos ohangida so‘rab, Usta kutgan mavzuda savdogarning o‘zi gap ochib qoldi. — Sichqonimiz ham inidan chiqib qolsa, uning g‘alati qiliqlarini bir ko‘rib ketardingiz.

Usta indamay yelkasidagi navronni yana pastga tushirib qo‘ydi.

(Davomi bor.)

TALABALIK

Kuni kecha
maktab partasida o'tirgan
o'quvchi edingiz. Bugun esa litsey yoki
kollej talabasisiz! Qalay, talabalik
ma'qulmi? Yoki o'quvchilik davringizni,
qadrdon maktabingizni qo'msayapsizmi?

Shu kabi savollar bilan shahrimizdagi
turli kollej va litseylarda tahsil
olayotgan talabalarga murojaat
qildik.

Dono
JONXO'JAYEVA,
Sobir Rahimov
akademik litsey
talabasi:

— Talabalik meni ancha ulg'aytirib qo'ygandek.
Z i m m a m d a
mactabdagidan ham

jiddiyoq mas'uliyat his qilyapman.
Sababi, litsey o'qituvchilar ancha
talabchan, tajribali, qattiqko'l
ekanlar. Shu bilan birga, juda
mehribon, shirinso'z hamdirlar.
Guruhimizda bilimli o'quvchilar
juda ko'p. Shuning uchun
ham darslarimiz ko'pincha
bahs va munozaraga aylanib
ketadi.

Qisqasi, bu dargohda tahsil
olish menga juda yoqadi.

7

X a b i b u l l o
HAMIDULLAYEV,
T o s h k e n t
Gidrometeorologiya kolleji
talabasi:

— Mening g'alati bir
odatim bor: bolaligimda bog'chaga bormayman,
uxlatadi, deya xarxasha qillardim. Maktabga
chiquqach, bog'chamga qaytaman, u yer yaxshi
edi, deya onamni rosa xunob qilganman. Litsey
talabasi bo'lganimdan juda xursandman. Lekin
qadrdon maktabimni, sinfdoshlarimni
sog'inyapman. Yana bir yil maktabda o'qiysan
deyishsa, yo'q demasdim...



Nozima UBAYDULLAYEVA,
Jahon tillari instituti qoshidagi
akademik litsey talabasi:

— Sinfimizda eng a'lochi o'quvchi
edim. Kollejda esa mendan ham
bilimliroq o'quvchilar ko'p ekan.
Ularga juda havasim kelyapti. O'qituv
chilarimiz ham o'ta talabchanlar.
To'g'risi, a'lochilar safidan tushib
qolishdan qo'rqaqman. Shuning
uchun ham ko'proq o'qishga, dars
tayorlashga harakat qilyapman.
O'quvchilarimiz orasida ijobji ma'noda
raqobat bor. Shu jihatlari bilan litseyda
tahsil olish menga juda ma'qul
bo'yapti.

MA'QULMI?

Taklifingizga binoan «Aruz to'g'risida ma'lumot beruvchi qo'llanmalar oz.
Gazetangiz orqali o'quvchilarini aruz bilan tanishitrib borsangiz».
«Kelajak tonggi» radioeshittirishidan tushgan savollardan.



SIZ ARUZNI

Aziz bolalar! Sizlarga ma'lumki,
bezavol ma'naviyatimizning barkamol
xazinalardan birini ming yillik tarixga
ega bo'lgan mumtoz she'riyatimiz tashkil
qiladi. Aruz tizimi vaznlar asosida
yaratilgan lirik she'rlar yoqimli musiqiy
ohangga ega bo'lib, kuylash uchun
qulaydir. Bunday asarlar mumtoz
musiqamiz va xalq musiqasining
yuzlab kuylariga niyoyatda mos tushadi.

BILASIZMI?

Aruz—arabcha so'zdan olingen bo'lib, «Ariz»—
keng-enli ma'nolarini ifodalaydi. XIII asrda yashab
ijod qilgan arab adabiyotshunos, musiqashunos olim
Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan. Aruzni
Xalil ibn Ahmad o'zi yashagan vodiyl nomi bilan
yuritgan bir ming uch yuz yildan beri arab, forsiy
va turkiy adabiyotlarining asosiy she'riy mezonini
sifatida qo'llanib keladi. Turkiy adabiyotlar, jumladan,
o'zbek she'riyatida taxminan IX asrdan beri



qo'llaniladi. Uning bunchalik keng ko'lami umr-boqiyligi aruzga xos latif
musiqiylik, ohanglar rang-barangligi, hayot voqeiligi va insoniy
hissiyotlar olamini serjilo, jozibador ifodalash
imkoniyatlarning benihoyaligi bilan
belgilanadi. Aruz vaznni o'rganiş 5-
11-sinf o'quvchilarining adabiyot
majmualaridan o'rin olgan. Kelinglar,
yaxshisi siz biz bilan birgalikda ushbü
vaznga doir masalalarga to'xtalib
o'tsak.

Aruz misralarining cho'ziq va
qisqligiga asoslanadi. Aruzda uch xil

O'n sakiz ming olam oshubiÑagar boshindadur,
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadur.

Desa bo'lg'aykim, yana ham o'n sakiz yil husni bor,
O'n sakiz yoshinda mucha fitnakim boshindadur.

Hayrat etmon² husni naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi Ezid³ taolo sun⁴ naqqoshindadur.

Tan anga siymu⁵ ichinda tosh muzmar⁶ ko'nglidin,
Aqlig'a yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur.

May⁷ ketur, ey mug'ki⁸, yuz hayrat aro qolmish Masih⁹,
Bul'ajabirlarkim, bu eski dayr xuffoshindadur¹⁰.

To Navoiy to'kti ul oy furqatidin bahrin ashk,¹¹
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

Komila DEHQONOVA,

Sobir Rahimov akademik litseyi talabasi:

— O'quvchilik yillarimda tezroq maktabni bitirib, litsey yoki
kollej talabasi bo'lishni orzu qillardim. Mana, niyatimga ham yetdim,
litsey talabasi bo'ldim. Lekin maktab bilan litseyni hecham
solishtirolmayman. Chunki har birining o'z o'rnii bor hayotimda.

Litseyim kutubxonasi menga juda yoqadi. U yerda
mactabdagidan farqli o'laroq, kitoblar juda ko'p. Menga ma'qul
bo'lgan yana bir jihat — darslarda olgan bilimlarimizni amaliyotda
mustahkamlab borishimizdir.

Yuqorida ayrim tengdoshlaringizning fikrlari bilan tanishdingiz.
Xo'sh, aziz talabalar, yuqoridaq savollarga Siz qanday javob
bergan bo'lardingiz? Tahsil olayotgan litsey va kollejingiz qay
jihatlari bilan Sizga ma'qul? Yoki aksincha, ta'lim-tarbiya, shart-
sharoitlar borasida muammolar bo'lsa, bizga yozib yuborasiz,
degan umiddamiz.

bo'g'in bor. Ular quyidagicha ifoda etiladi:

1. Cho'ziq —

2. Qisqa V

3. O'ta cho'ziq —V

Cho'ziq bo'g'inning o'zi ikki qismiga bo'linadi:

A) Yopiq bo'g'in: men, mak-tab, man-zil kabi
so'zlar cho'ziq bo'g'indir.

B) Ochiq bo'g'in: (cho'ziq, unli bilan tugagan
bo'g'in) do-no, ze-bo, ki-tob-lar-ga kabi so'zlar
cho'ziq bo'g'inga kiradi.

Qisqa bo'g'in V ochiq bo'ladi (qisqa unli bilan
tugagan urg'usiz bo'lib) ha-yot, mu-hab-bat.

v v

Kel-ma-di.

v

O'ta cho'ziq bo'g'in — V bir yarim bo'g'in
Mehr, charx, jabr, sham

— v — v — v — v

Biz yuqorida ta'kidlab o'tgan bo'g'lnarni Zahiriddin Muhammad
Bobur g'azali misolida ko'ramiz.

Charx-ning men ko'r-ma-gan jabr-u ja-fo-si qol-di-mu

— v — — — v — — — v — — — v —

Xas-ta ko'ng-lum chek-ma-gan dard-u ba-lo-si qol-di-mu

— v — — — v — — — v — — — v —

Ushbu g'azal musammani mahzufda bitilgan bo'lib

— v — — — v — — — v — — — v —

Foilotun foilotun foilotun foul

tarzda ifoda etilgan.

Ahtamqul KARIM

Kuni kecha poytaxtimizdagi Respublika bolalar kutubxonasi Xalq ta'limi vazirligi hamda «Kamolob» Yoshlar ijtimoiy harakati tashabbusi bilan o'tkazilgan «Dillarda Vatan madhi» kitobining taqqidmotiga yig'ilgan o'quvchilar hamda mehmonlar bilan gavjum bo'ldi.

Xabaringiz bor, yurtimiz mustaqilligi bayrami arafasida Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi hamda «Kamolob» yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda insholar tanlovini o'tkazgan edi. Unda yurtimizning umumta'lum maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim dargohlarida tahlil

«DILLARDA VATAN MADHI»



olayotgan o'n mingdan ziyod o'quvchilar va talaba yoshlar ishtirok etdilar. «Biz O'zbekiston farzandlarimiz», «Biz hech kimdan kam emasmissiz va hech qachon kam b o 'l m a y m i z », «O'zbekistonning g'ururi tog'lardan baland» kabi mavzularagi ijodiy ishlar tanloving tuman, shahar, viloyat va Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichlaridagi eng sara ijodiy ishlar «Dillarda Vatan madhi» nomli to'plam holida chop etildi.

Bolalar badiiy havaskorlik jamoalari a'zolari ijrosidagi Vatanni, istiqlojni madh etuvchi kuy va qo'shiqlar tadbiriga yana-da fayz kiritdi.

O'z muxbirimiz

8



Temirba boy mahsulotlar:

100 gr. mahsulotda temir mg. hisobida:

- 1.Yalpiz – 9,5
- 2.Petrushka – 7,5
- 3.Ukrop – 9,5
- 4.Oq loviya – 7,7
- 5.Qo'y jigari – 7,5
- 6.Mol buyragi – 7,2
- 7.Mol jigari – 7,0
- 8.Tovuq jigari – 7,5
- 9.Kungaboqar donasi – 6,4
- 10.Qizil loviya – 6,4
- 11.No'xat – 5,5
- 12.Quritilgan shaftoli – 6,8
- 13.Mol yuragi – 4,9
- 14.Quritilgan o'rik – 4,1

Qadimgi Gretsiya va Misrda nonning shifobaxshligiga katta ahamiyat berilgan. Non oshqozon kasalliklariga davo ekanligi o'sha davr tabiblari tomonidan isbotlangan.

Eng katta novvoyxonha Izmaylovoda bo'lib, u podsho saroyi ixtiyorida bo'lgan.

Non iborasining kelib chiqishi Gretsiya novvoylari nomi bilan bog'liq. Novvoylar non tayyorlashda maxsus idishlardan foydalanganlar. Idishning nomi esa «klibanos» deb atalgan, bu esa bizning tilda «non» so'zini anglatadi.

Muhabbat HAMDOVA tayyorladi

BUGUNNING



«YANGI AVLOD» LARI

ASAL

Hayotdag shiori:

doimo olg'a intilish va ko'zlagmaqsadiga erishish.

Yoqtirgan fani:

musiqa va adabiyot.

Kitobi: «Aka-uka Grimmalar».

Filmi: «Titanik».

Qo'shiqchisi: Botir Zokirov.

Sport turi: tennis

Taomi: lag'mon

Rangi: havo rang

San'atdan tashqari qiziqishlari: bo'sh vaqtlarida tikish-bichish va liboslearning yangi modellarini yaratish.

Eng katta orzusi:

tanlov g'olibiga aylanganidan so'ng, san'atning qo'shiqchilik turi bilan shug'ullanishga kirishdi va o'z oldiga kelajakda bundan-da ulkan muvaffaqiyatlarga erishish maqsadini qo'ydi.

— **Qaysi xorijiy tillarni o'rganasiz?**

— Ingliz, nemis.



— «Yangi avlod» festivali sizlarda qanday taassurot qoldirdi?

— Bu festival bizning hayotimizda juda yorqin iz qoldirdi. Ko'plab do'stlar ortirdik.

Bundan tashqari, ustozlarimiz bergan bilimlarini oqlash imkoniyatiga ega bo'ldik.

Kelajakda yurtimiz rivojiga o'z hissamizni qo'shishni, o'zbek qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishni o'z oldimizga eng olyi maqsad qilib qo'yanmiz.

— **Qaysi xorijiy tillarni o'rganasiz?**

— Ingliz, nemis.

Bobur NAZAR MUHAMMEDOV tayyorladi

AZIZA

Hayotdag shiori:

har bir inson o'z taqdirini o'zi yaratadi.

Yoqtirgan fani:

adabiyot va matematika.

Kitobi: «Yevgeniy Onegin» romani.

Filmi: «Titanik».

Qo'shiqchisi: Sevara Nazarxon.

Sport turi: tennis.

Taomi: osh.

Rangi: oq va qora.

San'atdan tashqari qiziqishlari: kompyuter va uning imkoniyatlaridan foydalanishni, qiziqarli ma'lumotlar olishni yoqtiradi.

Eng katta orzuungiz:

— Mazkur tanlov mena san'atimni namoyon qilishda ulkan poydevor bo'ldi. Mening mazkur tanlovdagi ishtirokim o'z kuchimni sinab ko'rish, kamchiliklarimni anglash va ularni to'g'rilash imkoniyatini yaratib berdi.

— **Qaysi xorijiy tillarni o'rganasiz?**

— Ingliz, nemis.

YODINGDA TUT VA TAOMINGGA QO'SH



Aziz bolajonlar! Siz to'qqiz yoshli bolakayni magistr darajasiga yetganini eshitdingizmi? Xonkong universitetining talabasi darslarning ikkinchi kunidanoq ulardan zerikkani ma'lum qildi.

Mark ismli bu yigitcha eng yuqori ball bilan o'qishga qabul qilingan edi. Mark o'qishga kirganidan mammun edi-yu, ammo mashg'ulotlar unga haddan tashqari jo'n tuyulayapti.

— Men bu mavzularni allaqachon 2 yil oldin o'qiganman, — dedi u. Mark uchun universitetda besh yillik maxsus ta'lim tizimi ishab chiqiladigan bo'ldi. Besh yildan so'ng Markga bir yo'la magistr darajasi berilsa, hech kim ajablanmaydi.



Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
KAMOLOT yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamiq'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Elyor ESHCHANOV
Navbatchi:
Feruza ADILOVA

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMU Bosh
muharrir o'rincosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rincosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navori ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel./faks: (99871) 144-38-10
Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
Adadi - 19010
Buyurtma N: J4144